



JARQO'RG'ON TUMANINING TABIIY VA IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINING GEOGRAFIK TAHLILI

Turdiyeva Durdona Bahrom qizi

Termiz davlat universiteti talabasi

turdiyevadurdona828@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatining Jarqo'rg'on tumani tabiiy-geografik sharoiti, demografik salohiyati, sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanish holati kompleks geografik jihatdan tahlil qilingan. Tumanning iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari, ishlab chiqarish hajmi, mehnat resurslari va xizmat ko'rsatish sohalarining hududiy xususiyatlari o'rganilgan. Shuningdek, hududda mavjud muammolar, jumladan, sanoat tarmoqlarining sust rivojlanishi, bandlik muammolari hamda investitsion muhitga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: geografik tahlil, iqtisodiy rivojlanish, qishloq xo'jaligi, sanoat, mehnat resurslari, demografik salohiyat, investitsion muhit, xizmat ko'rsatish sohasi, transport geografiyasi, Jarqo'rg'on tumani.

KIRISH. Hozirgi globallashuv sharoitida hududlarni kompleks geografik tadqiq etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, kichik hududlar – tumanlar miqyosida olib borilgan tadqiqotlar yirik hududlarning tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish qonuniyatlarini chuqur anglash imkonini beradi. Chunki hududiy muammolarni lokal darajada o'rganish ularning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini aniqroq tahlil qilishga xizmat qiladi.

Hududlarni kompleks o'rganish tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqaruvchi kuchlarni oqilona joylashtirish, aholi bandligini oshirish va hududiy rivojlanish istiqbollari belgilashda muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan



Jarqo'rg'on tumanining tabiiy, demografik va iqtisodiy salohiyatini geografik nuqtai nazardan tadqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Jarqo'rg'on tumani Surxondaryo viloyatining yirik ma'muriy hududlaridan biri bo'lib, 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan. Tumanning umumiy maydoni 1,14 ming km² ni tashkil etadi. Shimolda Qiziriq va Bandixon tumanlari, sharqda Qumqo'rg'on tumani, janubi-g'arbda Angor va Termiz tumanlari hamda sharqda Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh. 2026-yil ma'lumotlariga ko'ra, tuman aholisi 249 ming kishini tashkil etadi. Aholi zichligi har bir kvadrat kilometrda 195,3 kishidan to'g'ri kelib, bu ko'rsatkich viloyat o'rtacha zichligidan yuqori hisoblanadi. Tuman hududida 1 ta shahar, 5 ta shaharcha va ko'plab qishloq aholi punktlari mavjud.

Geografik o'rni, tabiiy sharoiti va resurslari. Jarqo'rg'on tumani Surxondaryo vodiysining markaziy qismida joylashgan bo'lib, relyefi asosan tekisliklardan iborat. Hudud janub tomon pasayib boradi. Iqlimi keskin kontinental bo'lib, qishi qisqa va iliq, yozi esa uzoq, quruq hamda issiq kechadi. Iyul oyining o'rtacha harorati 28-32°C, yanvar oyida esa 2,8-3,6°C ni tashkil etadi. Yillik yog'in miqdori o'rtacha 130-140 mm bo'lib, asosan qish va bahor fasllariga to'g'ri keladi.

Hududda sug'orma dehqonchilik rivojlangan bo'lib, Surxondaryo daryosi, Amu-Zang va Bobotog' kanallari asosiy suv manbalari hisoblanadi. Sharqiy hududlarda suv ta'minotini yaxshilash maqsadida «Oqtepa» suv ombori va Jarqo'rg'on gidrouzeli barpo etilgan.

Tumanning o'simlik va hayvonot dunyosi ham xilma-xildir. Cho'l va adir hududlarida oq saksovul, qandim, yantoq, teresken kabi o'simliklar, daryo bo'ylarida esa jiyda, turang'il, tol va qamishzorlar uchraydi. Hayvonot dunyosida jayron, tulki, bo'ri, silovsin, qirg'ovul va kaklik kabi turlar mavjud.

Aholisi va demografik holati. 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, Jarqo'rg'on tumani aholisi Surxondaryo viloyati doimiy aholisining 8,2 foizini tashkil etadi. Aholining 49,5 ming nafari shaharlarda, 199,5 ming nafari esa qishloq joylarida



istiqomat qiladi. Bu esa tumanda qishloq aholisi salmog'i yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Tuman mehnat resurslariga boy hududlardan biri hisoblanadi. Aholi sonining muntazam o'sib borishi mehnat bozorida yangi ish o'rinlari yaratishni taqozo etmoqda. Shu bilan birga, demografik o'sish ijtimoiy infratuzilma, ta'lim, sog'liqni saqlash va xizmat ko'rsatish sohalarini kengaytirishni talab qiladi.

Xo'jaligi va sanoat tarmoqlari. Jarqo'rg'on tumani iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi yetakchi o'rin egallaydi. Shu bilan birga, sanoat tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha ham muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Tumanda paxta tozalash, qurilish materiallari ishlab chiqarish, hunarmandchilik va to'qimachilik korxonalari faoliyat yuritadi.

2025-yil yakunlariga ko'ra, tumanda 1433,8 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'sish sur'ati 107,2 foizni tashkil etdi. Shu davrda 362,0 mlrd so'mlik iste'mol tovarlari ishlab chiqarildi.

Hududda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi yuqori bo'lib, sanoat mahsulotlarining asosiy qismi nodavlat sektor hissasiga to'g'ri keladi. Tumanda Kakaydi, Lalmikor va Uchqizil hududlarida neft hamda gaz konlari mavjudligi sanoat rivojlanishi uchun muhim resurs bazasini yaratadi.

Shunga qaramasdan, sanoat tarmoqlarining diversifikatsiyasi yetarli emas. Hududda xomashyoni qayta ishlovchi zamonaviy korxonalar sonining kamligi iqtisodiy samaradorlikni cheklab qo'ymoqda.

Qishloq xo'jaligi. Jarqo'rg'on tumani qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan hudud hisoblanadi. Sug'oriladigan yerlar maydoni 114,2 ming gektarni tashkil etadi. Asosiy yo'nalishlar paxtachilik, g'allachilik, bog'dorchilik, uzumchilik va chorvachilikdan iborat.

2025-yilda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari hajmi 2544,3 mlrd so'mni tashkil etdi. Chorvachilikda yirik shoxli qoramollar soni 81 ming boshdan ortiq bo'lib, qo'y va echkilar soni 260 ming boshga yaqinlashgan.



Fermer va dehqon xo'jaliklari hudud agrar iqtisodiyotining asosiy ishlab chiqaruvchilari hisoblanadi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash darajasi pastligi sababli tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmi yetarli emas.

Ijtimoiy sohalar va xizmatlar. Tumanda ta'lim, sog'liqni saqlash va madaniyat muassasalari faoliyat ko'rsatmoqda. 2024/2026-o'quv yilida 66 ta umumta'lim maktabida 37,5 mingdan ortiq o'quvchi tahsil olgan. Tibbiyot sohasida 4 ta kasalxona, 4 ta poliklinika, qishloq vrachlik punktlari va boshqa tibbiyot muassasalari aholiga xizmat ko'rsatadi. Tumanda xizmatlar sohasi ham rivojlanib bormoqda. 2022-yilda xizmatlar hajmi 749,5 mlrd so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati 113,1 foizga yetgan.

Transport geografiyasi. Jarqo'rg'on tumani transport geografik jihatdan qulay hududda joylashgan. Tuman orqali xalqaro va respublika ahamiyatiga ega avtomobil yo'llari o'tadi. Xususan, M-41 avtomobil yo'li Termiz va Toshkent yo'nalishini bog'laydi.

Tumanda avtomobil transporti yaxshi rivojlangan bo'lib, xalqaro ahamiyatga ega yo'llar uzunligi 46 km, davlat ahamiyatidagi yo'llar esa 79 km ni tashkil qiladi. Transport infratuzilmasining rivojlanganligi hudud iqtisodiy aloqalarini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jarqo'rg'on tumani Surxondaryo viloyatining tabiiy resurslarga, mehnat salohiyatiga va qishloq xo'jaligi imkoniyatlariga boy hududlaridan biri hisoblanadi. Hududda iqtisodiyotning agrar yo'nalishi ustun bo'lsada, sanoat tarmoqlarini diversifikatsiya qilish va qayta ishlash korxonalarini rivojlantirish zarur hisoblanadi.

Quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Tog'-kon va qayta ishlash sanoatini rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlari yaratish.
2. Bog'dorchilik, uzumchilik va chorvachilikni zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish.



3. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi zamonaviy korxonalarni tashkil etish.
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash.
5. Aholiga xizmat ko'rsatish infratuzilmasini rivojlantirish.
6. Paxta-to'qimachilik klasterlarini kengaytirish.
7. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish.
8. Pilla va meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlovchi zamonaviy korxonalarni ishga tushirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. *Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.* - Toshkent: O'zbekiston, 2016.
2. Soliyev A. *O'zbekiston geografiyasi.* - Toshkent: Universitet, 2014.
3. Ro'ziyev A. *Surxondaryo geografiyasi.* - Toshkent: Jayhun, 1996.
4. *Surxondaryo viloyati statistika to'plami.* - Termiz, 2018.
5. Abdunazarov H.M., Ortiqova Sh.Z. «General Geographical Description Of Angor District» // *Eurasian Journal of History, Geography and Economics.* Volume 3, 2021.
6. Rakhmatov A.F., Artikova Sh.Z. «Development of Fishing Farms in River Areas of Surkhondaryo Region» // *Middle European Scientific Bulletin.* Volume 17, 2021.
7. Rakhmatov A.F., Ortiqova Sh.Z. «Surxondaryo viloyati bog'dorchiligining geografik ko'rinishi» // *Journal of Geography and Natural Resources.*
8. stat.uz
9. agro.uz